O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD/37/27.02.2020.YU.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI

JUMANOV ZAFAR SATTAROVICH

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI TIZIMIDA TIBBIY XIZMATLARNI KO‘RSATISHDA PATSIYENT HUQUQLARINI TA’MINLASH

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK.347:152

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Jumanov Zafar Sattarovich
Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlash.....3

Жуманов Зафар Саттарович
Обеспечение прав пациентов при оказании медицинских услуг в системе министерство внутрених дел.....23

Jumanov Zafar Sattarovich
Ensuring the rights of patients in the provision of medical services in the system of the Ministry of Internal Affairs.....43

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati
Список опубликованных научных работ
List of published scientific works 48

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD/37/27.02.2020.YU.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI

JUMANOV ZAFAR SATTAROVICH

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI TIZIMIDA TIBBIY XIZMATLARNI KO‘RSATISHDA PATSIYENT HUQUQLARINI TA’MINLASH

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.2.PhD/Yu108 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich,** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich,** yuridik fanlar doktori, professor
	Djoldasova Saxipjamal Djalgasovna, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD/37/27.02.2020.YU.107.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 20. 10. soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-88; faks: (99855) 501-01-89, e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sudyalar oliy Kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-88; e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “5”- oktabrda tarqatildi.

(2023-yil “5”-oktabrdagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).

I.O.Sindarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.R.Artikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

B.B.Samarxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Sog‘liq har qanday insonga berilgan ajralmas nomoddiy ne’mat bo‘lib, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ustavining preambulasida belgilanganidek, u shaxsda kasallik yoki nogironlikning yo‘qligini emas, balki to‘liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatini ifoda etadi. BMT tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarda ham har bir kishining jismoniy va ruhiy salomatlik jihatidan eng yuqori kamolotga erishish hamda zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish huquqlari umume’tirof etilgan[1]. Shuningdek, ushbu huquqlarni to‘liq ro‘yobga chiqarish, barchaga tibbiy yordam ko‘rsatish va tibbiy parvarishni ta’minlaydigan sharoit yaratish uchun davlatlar amalga oshirishlari lozim bo‘lgan choralar belgilab berilgan.

Ayni paytda, butun dunyoda inson sog‘lig‘iga xavf solayotgan kasalliklarning oldini olish bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan strategiyalar qabul qilinmoqda.

Shu bilan birga, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tahliliga ko‘ra, dunyo bo‘yicha o‘limning 70 % dan ortig‘ini yuqumli bo‘lmagan kasalliklar, jumladan, yurak kasalliklari, insult, saraton, qandli diabet va surunkali o‘pka kasalliklari, ruhiy kasalliklar tashkil qilmoqda[2]. Shuningdek, koronavirus kasalligiga (COVID-19) chalinish 2023-yil 28-iyun holatiga ko‘ra, 767,5 mln.taga yetgan va ular orasida 6,9 mln. o‘lim holatlari qayd etilgan[3]. Bu borada bemorlarga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifati bilan bog‘liq jarayon alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tahlillar dunyo miqyosida kasalliklarning oldini olish, ularga tashxis qo‘yish va davolash, birlamchi tibbiy yordamni yaxshilash tizimini takomillashtirish, xususan, tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning yangicha yondashuv va konsepsiyalarini ishlab chiqish zaruratining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Qolaversa, tibbiy xizmatlardan foydalanish borasida bemorlar sog‘liqni saqlash muassasalariga nisbatan tibbiy bilimga ega bo‘lmagan “zaif taraf” bo‘lib, tibbiyot xodimlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlashda tibbiy xizmat iste’molchilarining teng pozitsiyasini amalga oshirish imkonini cheklaydi. Bu holat sog‘liqni saqlash muassasalari bilan patsiyent o‘rtasidagi tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarni mazmunan boyitishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda Ichki ishlar vazirligi tizimidagi tibbiyot muassasalari tomonidan patsiyentlarga, ayniqsa, chekka va olis hududlarda sifatli tibbiy xizmatlar ko‘rsatish doirasini kengaytirish, huquqlarini ta’minlash, kasalliklarning vujudga kelayotgan yangidan-yangi turlarini o‘z vaqtida aniqlash va davolash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, shuningdek, mutaxassislarning zimmasidagi vazifalarni samarali ijrosini ta’minlash sohalarida fuqarolik-huquqiy

[1] https://www.who.int/ru/about/governance/constitution
[2] https://www.who.int/ru/about/what-we-do
[3] https://covid19.who.int/

konstruksiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini, innovatsion raqamlashtirish choralarini samarali tatbiq etish masalalarini ilmiy tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” (1996), “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” (1996), “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi (2016) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-2107-sonli (1998), “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2863-sonli (2018), “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari (2022), shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ichki ishlar organlari xodimlari hamda ular oila a’zolarining tibbiy-sanitariya, tibbiy-ijtimoiy yordam va sanatoriy-kurort ta’minoti, davolash-profilaktika muassasalarini dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash tartib-taomillari to‘g‘risidagi hamda mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlash masalalari O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik hamda tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlari asosida ilk marotaba tadqiq etilmoqda.

Tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlashning ayrim jihatlari jahonda A.Becker, A.Joseph, B.Christian, A.Abiodun, F.Oyawale, P.Delbon, K.Knight, N.Davoody, S.Koch, I.Krakau, M.Hagglund, R.Bouvet, B.Brożek, M.Jakubiec, Adam Bohr, Kaveh Memarzadehlar kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

I.G.Gal, Y.V.Danilochkina, I.G.Lomakina, A.N.Pishita, L.A.Popolzuxina, R.N.Kuznesov, O.G.Pechnikova, A.P.Pechnikov, K.S.Mikloshevich, V.N.Solovev, A.V.Ravnyushkin, G.A.Pashinyan, Y.V.Belyaeva, N.Y.Dobrovolskaya, P.O.Romodanovskiy, K.V.Yegorov, N.K.Yelina, L.I.Arxipov, V.V.Avdeev, V.A.Alekseev, F.Y.Vartanyan, I.S.Shurandina, S.N.Bakunin, I.M.Vilgonenko, Y.N.Slepenek, L.V.Visoskaya, A.Y.Galkin, L.T.Gibadullina, O.Y.Jamkova, A.A.Inyushkin, P.S.Kudasheva, K.I.Korobko, N.V.Kuznesova, V.V.Sezev, A.A.Sirotkina, Y.S.Saligina, V.N.Sidorova, N.A.Simchenko, V.V.Safonov, O.Y.Ruchkin, A.V.Tixomirov, M.M.Tokuev, A.R.Shayaxmetova, V.I.Chislov, A.V.Maksimenko kabi MDH a’zo davlatlarining olimlari tomonidan o‘rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlari tadqiq etilgan.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizdagi H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.O.Oqyulov, Sh.N.Ro‘zinazarov, N.S.Narmatov, B.X. Borotov, T.A.Mo‘minov, O.A.Kamalov, N.A.Kuldashev, U.M.Mahmudxodjayevalar tomonidan tadqiqot

mavzusining ayrim jihatlari haqida ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan bo‘lsa, F.A.Vaitova, J.I.Babayev, J.Askarovlar tomonidan tibbiy xizmat ko‘rsatishning ayrim turlari, shuningdek, M.S.Boltayev tomonidan O‘zbekiston Respublikasida tibbiy sug‘urta faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish va A.A.Karimov tomonidan fuqarolar sog‘lig‘ini saqlashni fuqarolik-huquqiy normalar vositasida ta’minlash masalalari o‘rganilgan[4].

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda ichki ishlar organlarining ishtiroki: holati, muammolari va yechimlari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlash masalalarini tahlil qilish asosida milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fuqarolik huquqining obyekti sifatida tibbiy xizmatlar tushunchasi va belgilarini ochib berish;

tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan kelib chiqadigan fuqarolik munosabatlarini huquqiy tartibga solish masalalarini tahlil etish;

patsiyentlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollarini o‘rganish;

Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarning iste’molchisi sifatida patsiyentning huquqiy maqomini asoslab berish;

Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlar ijrochisining majburiyatlarini belgilash;

Ichki ishlar vazirligi tizimida haq evaziga tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining o‘rni va ahamiyatini yoritib berish;

Ichki ishlar organlari tizimida tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonida patsiyentga yetkazilgan zarar uchun ijrochining fuqarolik-huquqiy javobgarligi masalasini tadqiq etish;

Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish sohasida qonunchilik hujjatlari va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish istiqbollari bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti – Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlash masalalari bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Tadqiqotning predmeti tadqiqotning obyekti bilan bog‘liq ilmiy-amaliy muammolar va huquqni qo‘llash amaliyotidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning sohada yuz berayotgan voqea va hodisalarni o‘rganish, tizimli tahlil, mantiqiylik,

[4] Ushbu olimlarning tadqiqot ishlari ro‘yxati dissertatsiyaning adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

umumlashtirish, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, sotsiologik so‘rov, statistik ma’lumotlarni o‘rganish kabi usullaridan keng foydalanildi.

Dissertatsiya ishi doirasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan anketa so‘rovlari ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi rasmiy telegramm kanalida soha xodimlari o‘rtasida 2023-yil 5-yanvardan 5-martga qadar o‘tkazildi va unda jami 500 nafar xodim qatnashdi[5].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dori vositalarini reklama qilishda olimlarning, tibbiyot xodimlarining tavsiyalaridan, shuningdek, alohida shaxslarning minnatdorchiligidan, reklama qilinayotgan dori vositalarining ta’siri haqidagi hikoyalaridan iborat bo‘lgan tavsiyalardan foydalanishni ta’qiqlash zarurligi asoslab berilgan;

kasallik (jarohat) va (yoki) dori vositalarining inson organizmiga ta’siri natijasida inson organizmida yuz beradigan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi videolavhadan, tasvirdan yoki vizual namoyishdan dori vositalarini reklama qilishda foydalanishni ta’qiqlash lozimligi dalillangan;

ichki ishlar organlari tizimidagi davolash-profilaktika muassasalari xizmatidan foydalanish huquqiga ega bo‘lmagan shaxslarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun biriktirilgan tarkib manfaatlariga zarar keltirilmaydigan shartlarda pullik tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishi mumkinligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlari tizimidagi davolash-profilaktika muassasalariga biriktirilgan tarkib mazkur muassasalarda ambulatoriya, statsionar sharoitlarda bepul tibbiy tekshiruvlardan o‘tkazilishi, davolanishi va sog‘lomlashtirilishi, shuningdek, ularga tibbiy ko‘rsatmalar bo‘yicha turar joylariga borib tibbiy yordam ko‘rsatilishi dalillangan;

ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarga chalingan soha xodimlari ichki ishlar organlari tibbiyot boshqarma va bo‘limlari mutaxassislari nazoratiga olinib, ularni davolash va sog‘lomlashtirish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot muassasalarida amalga oshirilishi asoslab berilgan;

yigirma yil va undan ko‘p kalendar yil xizmat qilgan xodimlar yil davomida ichki ishlar organlarining tibbiyot muassasalarida statsionar sharoitda davolanmagan taqdirda, ularga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davolanish uchun yilning yakuni bo‘yicha mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 4 baravarida bir martalik pul kompensatsiyasi to‘lanishi aniqlangan;

ichki ishlar organlari xodimlariga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davolanish uchun pul kompensatsiyasi to‘lanishi qonuniylik, ijtimoiy adolat, oshkoralik tamoyillariga muvofiq bo‘lishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari dissertatsiyadagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ilmiy-amaliy faoliyatda, Qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotida, sohaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik, tadbirkorlik, shartnoma va tibbiyot huquqi,

[5] www.iiv.uz (t.me/iiv.uz)

birinchi tibbiy yordam fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, dissertatsiyaning amaliy natijasi sifatida Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyentning huquqini ta’minlash sohasida milliy qonunchilik hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid aniq takliflar va sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini, innovatsion raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish haqidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Pullik tibbiy xizmat ko‘rsatish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilish va “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritish, tibbiyot muassasalari xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish zarurati asoslantirildi.

Ishlab chiqilgan takliflar asosida O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonunining 5 va 46-moddalariga, “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunining 34-moddasiga, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyasining shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to‘g‘risida”gi 354-sonli qaroriga hamda Ichki ishlar vazirining 2022-yil 1-oktabrdagi “Ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to‘g‘risida”gi 404-sonli buyrug‘iga qator o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Mazkur amaliy natijalar, *birinchidan*, Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlashga doir ijtimoiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi; *ikkinchidan*, fuqarolarning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashda uning hajmi va tartibiga oid yangi huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi; *uchinchidan*, tibbiy yordam sifati va hajmiga doir milliy standartlar ishlab chiqilishi; *to‘rtinchidan*, ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning sog‘lig‘ini saqlash tizimining takomillashuvi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili va axborot bazasida rasmiy e’lon qilingan statistik ma’lumotlarga asoslangani, unda chiqarilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar tegishli davlat organlari hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani va amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot predmeti doirasida olingan umumnazariy xulosalar, taklif-tavsiyalardan kelgusida ilmiy faoliyatda, Qonun ijodkorligida, sohaga oid huquq normalarini sharhlashda va huquq fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ichki ishlar organlari faoliyatini hamda patsiyentlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasini huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek, ichki ishlar organlarining xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida ilmiy asoslantirilgan takliflar tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish to‘g‘risidagi ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

dori vositalarini reklama qilishda olimlarning, tibbiyot xodimlarining tavsiyalaridan, shuningdek, alohida shaxslarning minnatdorchiligidan, tavsiyalaridan va reklama qilinayotgan dori vositalarining ta’siri haqidagi hikoyalaridan iborat bo‘lgan tavsiyalardan hamda kasallik (jarohat) hamda (yoki) dori vositalarining inson organizmiga ta’siri natijasida inson organizmida yuz beradigan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi videolavhadan, tasvirdan yoki vizual namoyishdan foydalanishni ta’qiqlash zarurligiga doir takliflari O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida” 2022-yil 7-iyundagi O‘RQ-776-sonli Qonunining 34-moddasi ikkinchi qismi uchinchi-to‘rtinchi xatboshilarida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari qo‘mitasining 2023-yil 30-maydagi 6-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif fuqarolarning sog‘lig‘ini himoya qilishda dori vositalarining nomaqbul reklamalarini tayyorlash, joylashtirish va tarqatishning oldini olishga xizmat qilgan;

fuqarolarning sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan hollarda aybdorlar jabrlanganlar ko‘rgan zarar o‘rnini qonunchilikda belgilangan hajm va tartibda qoplashlari shartligi hamda tibbiyot hamda farmatsevtika xodimlari o‘z vazifalarini malakali bajarmaganliklari oqibatida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetgan hollarda yetkazilgan zararning o‘rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi haqidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi 1996-yil 29-avgustdagi 265-I-son Qonunining 46-moddasi birinchi va uchinchi qismlariga o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritishda o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023-yil 24-maydagi 02/4-62-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif fuqarolarning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashda uning hajmi va tartibiga oid yangi huquqiy mexanizmlarning qonunchilikda belgilanishini ta’minlagan;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urtaning normativ bazasini, tibbiy yordam sifati va hajmi milliy standartlarini ishlab chiqishda ishtirok etishiga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi 1996-yil 29-avgustdagi 265-I-son Qonunining 5-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshisiga o‘zgartishlar kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2023-yil 24-maydagi 02/4-62-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif tibbiy yordam sifati va hajmiga doir milliy standartlarning ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishiga sabab bo‘lgan;

ichki ishlar organlari tizimidagi davolash-profilaktika muassasalari xizmatidan foydalanish huquqiga ega bo‘lmagan shaxslarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun biriktirilgan tarkib manfaatlariga zarar keltirilmaydigan shartlarda pulli tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishi mumkinligi, ichki ishlar organlari tizimidagi davolash-profilaktika muassasalariga biriktirilgan tarkib ularda ambulatoriya, statsionar sharoitlarda bepul tibbiy tekshiruvlardan o‘tkazilishi, davolanishi va

sog‘lomlashtirilishi, shuningdek, tibbiy ko‘rsatmalar bo‘yicha turar joylariga borib belgilangan tartibda ularga tibbiy yordam ko‘rsatilishiga, ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarga chalingan soha xodimlari ichki ishlar organlari tibbiyot boshqarma va bo‘limlari mutaxassislari nazoratiga olinib, ularni davolash va sog‘lomlashtirish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot muassasalarida belgilangan tartibda amalga oshirilishiga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyasining shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to‘g‘risida”gi 2022-yil 4-iyuldagi 354-sonli qaroriga 1-ilovaning 2-bobi 6, 10, 15-bandlarida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 2023-yil 23-martdagi 12/13-03-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklif O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlash bilan bog‘liq munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

yigirma yil va undan ko‘p kalendar yil xizmat qilgan xodimlar yil davomida ichki ishlar organlarining tibbiyot muassasalarida statsionar sharoitda davolanmagan taqdirda, ularga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davolanish uchun yilning yakuni bo‘yicha mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 4 baravarida bir martalik pul kompensatsiya to‘lanishi, shuningdek, xodimlarga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davolanish uchun pul kompensatsiyasining to‘lanishi qonuniylik, ijtimoiy adolat, oshkoralik tamoyillariga muvofiq bo‘lishiga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2022-yil 1-oktabrdagi “Ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to‘g‘risida”gi 404-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizomning 1-ilovasi 13-bobi 302-bandida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 11/1-176-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, 6 ta ilmiy maqola (2 ta xalqaro) va 8 ta ilmiy konferensiyalar to‘plamlarida (2 ta xalqaro) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining hajmi 153 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning

dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlariga mosligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarning umumiy tavsifi”** deb nomlanib, unda fuqarolik huquqining obyekti sifatida tibbiy xizmatlar: tushunchasi va belgilari, tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan kelib chiqadigan fuqarolik munosabatlarini huquqiy tartibga solish masalalari, patsiyentlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollari kabi masalalar tahlil qilingan.

Biz M.Abdiyeva, F.Vaitova, V.Solovev, A.Sirotkinaning fikrlarini o‘rganib, tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini huquqiy jihatdan ta’minlash uchta yo‘nalishda, ya’ni ijtimoiy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy va ma’muriy-huquqiy tartibga solish doirasini qamrab olganligini e’tirof etdik. Shundan kelib chiqib, tibbiy xizmatlar erkin iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda namoyon bo‘lib, unda taraflar bemor va mutaxassislar o‘rtasida o‘zaro tenglikka asoslangan kelishuv orqali vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga xos belgilarni o‘zida namoyon qilishini ta’kidladik.

Bunda biz tibbiy xizmatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyektlari o‘rtasida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy obyektni tashkil etishini e’tirof qildik. Shu bois, fuqarolik huquqining obyekti bo‘lib hisoblangan “xizmat” va uning turlaridan biri bo‘lmish “tibbiy xizmat” tushunchalarining mazmun-mohiyati hamda ahamiyati barcha sohalar singari, ichki ishlar organlari tomonidan tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasi uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qolaversa, tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish inson hayotining eng muhim jihatlaridan biri – uning sog‘lig‘iga, tanasining yaxlitligiga ta’sir qilishi bois istiqbolda ushbu sohani rivojlantirish va ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini yanada oshirish muhim ekanligidan dalolat beradi.

Ilmiy-nazariy tahlillardan (I.B.Zokirov, N.G. Shamshurina, Y.V.Danilochkina) kelib chiqib, tibbiy xizmat boshqa xizmat turlaridan o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini asosladik. Bizning fikrimizcha, tibbiy xizmatlarni nomoddiylik (sog‘liq – bu bemorning alohida nomoddiy ne’mati va unga tibbiy xizmat orqali ta’sir qilish foydali ahamiyatga ega), xizmat ko‘rsatish manbasidan ajralmasligi (muayyan shifokorda ro‘yxatdan o‘tgan bemor uning yo‘qligi sababli boshqa shifokorga murojaat qilsa, kutilgan xizmat ko‘rsatilmasligi, sifatning nomutanosibligi (turli shifokorlar bir xil tibbiy xizmatni har xil yondashuvlar asosida ko‘rsatishlari va hatto, bitta shifokor bemorga uning ahvoliga qarab turli yo‘llar bilan yordam berishi mumkinligi) bilan boshqa xizmatlardan farqlanadi.

Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda munosabatlar teng huquqli subyektlar o‘rtasida yuzaga keladi, markazlashtirilmagan va fuqarolik-huquqiy tartibga solish sohasiga kiradi.

Bu borada dissertatsiya ishida ichki ishlar organlari tomonidan ko‘rsatiladigan

tibbiy xizmatlar tushunchasiga quyidagi ilmiy-doktrinal ta’rif berdik: tibbiy xizmat – bu maxsus huquq layoqatiga ega bo‘lgan subyektning kasbiy faoliyati, u bunday xizmatning iste’molchisi bo‘lgan bemor (patsiyent) bilan yaqin hamkorlikda amalga oshiriladigan va bemorning shaxsiy nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan hamda pullik asosda ko‘rsatiladigan xizmat bo‘lib, u fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi hamda fuqarolik huquqining obyekti hisoblanadi.

Dissertatsiyada tibbiy xizmatlar ko‘rsatishdan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni bevosita tibbiy faoliyat bilan bog‘liq, deb hisobladik. Fikrimizcha, tibbiy faoliyat – fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlar xarakteriga ega bo‘lgan ijtimoiy munosabatlardir.

Shuningdek, amaldagi qonunchilik hujjatlarida mustahkamlangan tibbiy xizmatlar bilan bog‘liq qoidalar tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish hamda himoya qilishga to‘laqonli mos kelmasligini inobatga olib, biz aholiga pullik xizmat ko‘rsatishning fuqarolik-huquqiy tartib-taomillarini belgilab beruvchi normativ hujjatni qabul qilish zarurligini qayd qildik.

Biz Ichki ishlar vazirligi tizimidagi tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonida patsiyent va bemor o‘rtasidagi farqli jihatlarni (O.G.Pechnikova va A.P.Pechnikov fikrlarini) tahlil etib, patsiyentning maqomini bemor maqomidan farqlab berdik. Jumladan, bizning fikrimizcha, patsiyent – tibbiy yordam oluvchi bemor yoki kasalga chalinganligi va ahvolidan qat’i nazar tibbiy xizmatni ko‘rsatish uchun murojaat qilgan jismoniy shaxsdir. Bemor esa kasalligi tufayli tibbiy yordamga muhtoj bo‘lgan tibbiy xizmatning iste’molchisi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga pullik tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi bilan bog‘liq alohida bobni kiritishi taklif qildik.

Dissertatsiya ishida texnika asri tobora rivojlanib borayotgan ayni bir paytda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan tibbiy xizmat faoliyatida foydalanish samaradorligini oshirish masalasining dolzarbligini asoslab berdik. Bunda biz S.S.Avloqulova, L.I.Arxipov, V.N.Babich, Y.A.Kirillova, N.A.Simchenko, V.V.Safonov hamda xorijlik olimlardan B.Brożek, M.Jakubiec kabilarning fikrlarini tahlil qildik hamda sun’iy intellektni sog‘liqni saqlash sohasiga, shu jumladan, boshqaruv funksiyalariga tatbiq etish faoliyatning yangi yo‘nalishlarini qamrab olishga imkon yaratishini e’tirof etdik.

Binobarin, bemorlar uchun qulaylik beradigan raqamli sog‘liqni saqlash ilovalarini ham ishlab chiqish dolzarb hisoblanib, ular orqali bemorlar oziq-ovqat iste’moli, hissiy holati, faoliyati kabi ma’lumotlarni yozib olish va qayta ishlash, shuningdek, taqiladigan qurilmalar, mobil sensorlar va shunga o‘xshash narsalar orqali sog‘lig‘ini kuzatish ma’lumotlariga ega bo‘ladi.

Qolaversa, sun’iy intellekt vositalari inson mehnatini osonlashtiradi va tibbiyot xodimlarining kundalik ish jarayonlarida klinik hujjatlar hamda bemorlarga murojaat qilishgacha bo‘lgan turli vazifalarni, shuningdek, tasvirni tahlil qilish, tibbiy asboblarni avtomatlashtirish va bemorlar monitoringi kabi maxsus yordamni qo‘llab-quvvatlaydi.

Biz tadqiqot ishimizda tibbiy xizmat ko‘rsatishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash, sun’iy intellektdan foydalanishning quyidagi afzalliklarini ajratib ko‘rsatib berdik:

– bemorlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi (shu jumladan, kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash usullarini taklif qiladi);

– ma’muriy boshqaruvdagi funksiya va vazifalar uchun sarflanadigan vaqt va mablag‘ni tejashga xizmat qiladi;

– bemorlarning sog‘lig‘ini shaxsan o‘zlari nazorat qilish imkoniyati vujudga keladi. Xususan, sun’iy intellekt dasturlari bemorning sog‘lig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni eslatib turishi, dori vositalarini ichish vaqti va tartibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyati yaratiladi;

– “insoniyat ish uchun emas, balki ish insoniyat uchun xizmat qilishi kerak”, degan g‘oyani amalga oshiradi. Misol uchun, tibbiy xizmat jarayonlarini robotlashtirish tashkilotining o‘sishi bilan xodimlarni ko‘paytirishga hojat qoldirmaydi, faoliyatini oson va tejamkor qiladi;

– mavjud ayrim ish o‘rinlari mutlaqo yangi ish o‘rinlari bilan almashadi, vazifalarni qayta taqsimlash, ijodiy va aqliy faoliyat uchun xodimda ko‘proq vaqt qoladi (ya’ni insonlar qo‘l mehnatidan voz kechib aqliy mehnat bilan shug‘ullanishga o‘tadilar).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlash masalalari”** deb nomlanib, unda Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarning iste’molchisi sifatida patsiyentning huquqiy maqomi, tibbiy xizmatlar ijrochisining majburiyatlari, sohada haq evaziga tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish shartnomasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Biz ichki ishlar xodimlarining patsiyent sifatidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini hamda mazkur soha bo‘yicha O.Y.Jamkova, K.S.Miklоshevich, A.N.Pishita, V.V.Sergeyev, I.A.Shmelev kabi olimlarning fikrlarini tahlil etib, mazkur munosabatlar doirasidagi mavjud muammolarni ko‘rsatib berdik.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga qarashli aksariyat tibbiyot muassasalarida tor toiradagi malakali mutaxassislarning yetishmasligi, olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda xizmat faoliyatini olib borayotgan xodimlarga malakali tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish jarayoni ancha murakkabligi, patsiyentlar topshirishi majbur bo‘lgan analizlar texnikasi va laboratoriyalarning yetishmasligi soha xodimlarining patsiyent sifatidagi huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida mavjud muammolar hisoblanadi.

Shuningdek, biz Y.Y.Vasileva, L.T.Gibadullinalarning nuqtayi nazarlarini o‘rgandik va bemorning huquqiy maqomi uning fuqarolik muomalasida “zaif” tomon sifatida ishtirok etishi tufayli o‘ziga xosdir, uning huquqiy maqomi normativ darajada mustahkamlangan bo‘lib, u o‘zida huquqiy layoqat, huquqiy prinsiplar, bemorning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, javobgarlik kabi turli elementlarni birlashtiradi, degan xulosaga keldik.

Bemorning “kuchsiz”ligini esa quyidagicha izohladik: *birinchidan*, ijrochi xizmatlar bozorining professional ijrochisi patsiyentga tibbiy xizmatlarni ko‘rsatadi va bu holat patsiyent bilan kasbiy nuqtayi nazardan teng emas; *ikkinchidan*, tibbiy aralashuvning turi va ko‘lami ijrochi tomonidan o‘zining kasbiy bilimiga qarab tanlanadi, patsiyent esa faqat bu tibbiy xizmatga rozi bo‘lishi yoki rad etishi mumkin. Aksariyat holatlarda patsiyentning rad etish holatlari bo‘lmaydi, chunki unda bu xizmatga nisbatan tanlash imkoni chegaralangan bo‘ladi; *uchinchidan*, tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq ma’lumotlar nafaqat patsiyentga nisbatan, balki tibbiy bilimga ega bo‘lmaganlar uchun ham nomutanosibdir, chunki bemor ushbu xizmatlarni ko‘rsatish bilan bog‘liq aksariyat munosabatlarda tegishli zarur bilimga ega bo‘lmaydi; *to‘rtinchidan*, tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda bemorga yetkazilgan zarar shaxs va jamiyat uchun eng qimmatli ne’mat – sog‘liq hamda hayotga ta’sir qiladi; *beshinchidan*, tibbiy xizmatlar, odatda, sog‘liq bilan bog‘liq muammo vujudga kelganda, ayniqsa, patsiyent zaif bo‘lgan davrda taqdim etiladi. Ushbu hollarda bemorda ijrochiga ishonch va umid bilan murojaat qiladi. Bunda ijrochi patsiyentga professional xizmatlar ko‘rsata olmasa-da, uning xatti-harakatlarining noto‘g‘ri ekanligini isbotlash murakkab hisoblanadi.

Biz patsiyentning huquqiy maqomi sirasiga uning majburiyatlari ham kirishini ta’kidladik. Bu borada V.V.Avdeyev, A.A.Inyushkin, P.S.Kudasheva kabi olimlarning fikrlarini tahlil qilib, patsiyentlarning majburiyatlari ularning sog‘lig‘ini saqlash choralarini ko‘rish, shifokor ko‘rsatmalariga rioya qilish, davolanish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish, o‘z vaqtida tibbiy ko‘rikdan o‘tish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini nazorat qilib, uni taqdim etish jarayonlariga aralashmasligi kabilardan iborat bo‘lishini e’tirof qildik.

Dissertatsiya ishida, shuningdek, tibbiy xizmatlar ijrochilarining majburiyatlari ham asoslab beriladi. Bunda ushbu majburiyatlarning mazmun-mohiyatida shifokorning umumiy majburiyatlari, uning bemor oldidagi majburiyatlari, shifokorlarning bir-biriga nisbatan bo‘lgan o‘zaro majburiyatlari mavjudligini izohladik.

Tadqiqot ishi doirasida o‘tkazilgan anketa so‘rovlarida respondentlarning 88 foizi tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligini hisobga olgan holda, ichki ishlar idoralari tizimidagi tibbiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi muassasalarda patsiyentlarning sog‘liqni saqlash sifatidan qoniqqanlik darajasini baholash mezonlari va mexanizmlarini, shu jumladan, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini, tibbiyot xodimlari faoliyatini baholash mexanizmlarini axborot texnologiyalari orqali amalga oshirishni joriy etishni taklif qildik.

Shuningdek, tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha harakatlar majmui, ya’ni profilaktika, diagnostika, davolash, reabilitatsiya bo‘yicha tibbiy xizmatlarning ochiq elektron platformasini tashkil etish, patsiyentlarning sog‘lig‘i to‘g‘risida ochiq, haqqoniy va to‘liq ma’lumotlarni o‘z vaqtida berib borish, ularning huquqlarini ta’minlashda ijrochi zimmasidagi majburiyatlar mezonlarini, shu jumladan, tibbiyot xodimining etika qoidalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish zarurligi asoslab berildi.

Dissertatsiyaning **“Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlash tizimini takomillashtirish muammolari”** deb nomlangan uchinchi bobida ichki ishlar organlari tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyentga yetkazilgan zarar uchun ijrochilarning fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari, Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish sohasida qonunchilik hujjatlarini va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish masalalari tahlil qilib berilgan.

Biz ichki ishlar organlari tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyentga yetkazilgan zarar uchun ijrochilarning fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asoslari bilan bog‘liq olimlarning (H.Rahmonqulov, O.O.Okyulov, K.O.Sindarov, M.Baratov, N.A.Kuldashev, T.A.Mo‘minov, F.A.Vaitova) fikrlarini tahlil qilib, tibbiy yordam va tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda shartnomaviy hamda shartnomadan tashqari javobgarlikka jalb qilish uchun normativ-huquqiy baza mavjud bo‘lsa-da, ammo qonun chiqaruvchi patsiyentlarning zaif tomon ekanligini hisobga olgan holda sog‘liqni saqlash sohasidagi fuqarolik javobgarlik to‘g‘risidagi qoidalarni takomillashtirish lozim, degan xulosaga keldik.

Tibbiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi ijrochilar (shifokor, tibbiy muassasa) tomonidan yetkazilgan zarar uchun fuqarolik javobgarlikning shartlari sifatida zarar, g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik), sababiy bog‘lanish, qasd yoki ehtiyotsizlik tufayli vujudga kelgan ayb va javobgarlik subyektining mavjudligini e’tirof etdik.

Biz adabiyotlarda (U.I.Djumaniyazov, R.J.Toxirov, S.B.Xayitov, Y.P.Tretyakova, R.Dovnar, V.Kovrey) bildirilgan fikrlarni tahlil qilib, patsiyentlarga tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish borasida davlat-xususiy sheriklikning jahon amaliyotida keng tarqalgan yo‘nalishlarini Ichki ishlar vazirligi tibbiyot muassasalariga joriy etish zarurligini ta’kidlab o‘tdik.

Chunonchi, bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, ushbu yo‘nalishlarga dori vositalarining yangi turlarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish, farmatsevtik xizmatlarni ko‘rsatish madaniyatini rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash (shifoxonalar, davolash markazlari, sanatoriyalar kabilarni rivojlantirish, shuningdek, ularni zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish), tibbiyot muassasalari o‘rtasida axborot almashinuvini takomillashtirish va undan foydalanishda qulaylikni ta’minlash kabilarni kiritish zarur.

Mazkur sohaning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish esa kelgusida tibbiy xizmatlarning sifatini hamda ularni ko‘rsatish madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot davomida milliy va xorijiy tajribani o‘rganish hamda amaliyotni tahlil qilish natijalari asosida Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlashning samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar qilindi hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

I. Tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda patsiyent huquqlarini ta’minlashga oid ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Tibbiy xizmat – bu maxsus huquq layoqatiga ega bo‘lgan subyektning kasbiy faoliyati, u bunday xizmatning iste’molchisi bo‘lgan bemor (patsiyent) bilan yaqin hamkorlikda amalga oshiriladigan va bemorning shaxsiy nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan hamda pullik asosda ko‘rsatiladigan xizmat bo‘lib, u fuqarolik-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi hamda fuqarolik huquqining obyekti hisoblanadi.

2. Tibbiy xizmatlar fuqarolik huquqi va fuqarolik-huquqiy tartibga solishning murakkab obyektidir. U boshqa xizmatlardan sog‘liqni saqlashni o‘z ichiga olganligi bilan farq qiladi.

Boshqacha aytganda, mazkur xizmat sog‘liqqa aniq maqsadli ta’sir ko‘rsatishi va uning tibbiy xususiyati xizmat tarkibida tibbiy yordam ham ko‘rsatilishi bilan izohlanadi. Boshqa xizmatlar singari, hech qanday natijaga ega bo‘lmagan holda, tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish huquqiy natija (uni tashkil etuvchi harakatlarni yakunlash vaqti) va haqiqiy natija (ushbu harakatlarning foydali oqibatlari namoyon bo‘lish vaqti) bilan tugaydi.

3. Patsiyent – tibbiy yordam oluvchi bemor yoki kasallanganligi va ahvolidan qat’i nazar tibbiy yordam ko‘rsatish uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs.

Ushbu atama “bemor” iborasiga nisbatan keng tushuncha bo‘lib, u o‘z ichiga mazkur iborani ham qamrab oladi.

4. Patsiyent tibbiy tashkilotga nisbatan tibbiy bilimga ega bo‘lmagan zaif taraf bo‘lib, ushbu holat tibbiyot muassasasi uchun muayyan afzalliklar yaratsa, bemor huquqlarini ta’minlashga salbiy ta’sir qiladi hamda vujudga kelgan nizo taraflarning yuridik tengligi prinsipidan chetga chiqishi bilan ifodalanadi.

5. Ichki ishlar vazirligi tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishda ushbu xizmatlarning umumiy tomonlaridan tashqari, huquqiy tartibga solish hamda tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartlari borasida quyidagi o‘ziga xos belgilarga ega:

1) sog‘liqni saqlash sohasidagi munosabatlarning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yilganligi;

2) tibbiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyati yo‘naltirilgan maxsus obyekt – inson tanasi va shunga mos ravishda xizmatning maxsus maqsadi inson salomatligini tiklash hamda saqlashga qaratilganligi;

3) yuqori ijtimoiy ahamiyatga egaligi;

4) ommaviyligi;

5) yuqori professional mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi;

6) zamonaviy texnologiya va fan yutuqlaridan foydalanish zarurligi.

